

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
“IQTISODIYOT” FAKULTETI

«BUXGALTERIYA HISOBİ VA AUDIT» KAFEDRASI

“HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI”

“BH va A” kafedrasi mudiri

_____ dots. O.Xushmuradov “ _____ ”
_____ 2013 yil

“TASDIQLAYMAN”

“Iqtisodiyot” fakulteti dekani

_____ i.f.d. A.Xurramov
“ _____ ” _____ 2013 yil

**“O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy resurslari, ularning manbalari,
ishlatish yo'nalishlari va samaradorligi”
(Qashqadaryo viloyati moliya boshqarmasi misolida) mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY
ISHI

Bajardi:

“Moliya” ta’lim yo‘nalishi
Bitiruvchi IV-kurs M-41 guruh
talabasi Saidov Sayyod Mahmud o‘gli

Ilmiy rahbar:

“O‘zsanoatqurishbank” OATB
Qashqadaryo mintaqaviy filiali bosh
mutaxassis _____ Amonov D.

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi
16-sonli 24 iyun 2013 yil

Qarshi-2013 yil

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
I-bob. O'zbekiston Respublikasi budget tizimi va moliyaviy resurslari.....	6
1.1. O'zbekiston Respublikasi budget tizimi.....	6
1.2. O'zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy resurslari (budget daromadlari) va ularning tuzilmasi.....	8
II-bob.O'zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy resurslarining ishlatilish yo'nalishlari (budget xarajatlari) va ularning samaradorligi.....	11
2.1.O'zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy resurslarining ishlatilish yo'nalishlari (budget xarajatlari).....	11
2.2.O'zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy resurslarining ishlatilish samaradorligi.....	14
III-bob. Qashqadaryo viloyati moliya boshqarmasi misolida davlat moliyaviy resurslari, ishlatilish yo'nalishlari va samaradorligi.....	17
3.1. Qashqadaryo viloyati moliya boshqarmasi misolida davlat moliyaviy resurslari va ularning manbalari.....	17
3.2. Qashqadaryo viloyati moliya boshqarmasi misolida davlat moliyaviy resurslarining ishlatilish yo'nalishlari va samaradorligi.....	18
Xulosa.....	19
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	21

KIRISH

2008 yilda AQSHda boshlangan jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi natijasida dunyoning ko'plab mamlakatlari iqtisodiyotida keskin pasayishlar kuzatildi. YAIM hajmining tushib ketishi, davlat qarzlarning o'sishi, ishsizlik darajasining oshishi kabi salbiy iqtisodiy holatlar inqirozlarning mamlakatga ta'sir ko'rsatayotganligidan dalolat berib turardi. Ammo O'zbekiston borasida bu gaplarni aytish noo'rindir. YAIM hajmining o'sishi, davlat qarzining me'yordandan ham pastligi, inflatsiya darajasini me'yorda tutib turilishi va yana bir nechta iqtisodiy ko'rsatkichlar gapimizni isbotidir. Bunday natijaga esa mustaqillikka erishilgandan so'ng iqtisodiyotda tub burilishga sabab bo'lgan turli islohatlar va uzoqni o'ylab puxta yuritilgan moliyaviy siyosat tufayli erishildi.

Davlat moliyaviy resurslarining o'zbek xalqining mentalitetiga, uzoq asrlar davomida shakllangan urf-odatlarini hisobga olgan holda joylashtirilishi, xususan ijtimoiy sohaning o'ziga davlat budjetining yarmidan ko'pining sarflanishi bugunga kelib o'z samarasini bermogda.

Shu o'rinda moliyaviy resurslar haqida so'z yuritsak. Resurs iborasi fransuzcha "ressource" sozidan olingan bo'lib 'yordamchi vosita' ma'nosini beradi. Moliyaviy resurs deganda esa pul mablag'lari, qimmatliklar, ehtiyot zaxiralar, imkoniyatlar, daromad vositalari manbalarini anglatadigan vositalarni tushinishimiz mumkin.

Xo'jalik subyektining moliyaviy resurslari uning tasarrufidagi pul mablaridan iborat bo'ladi. Ushbu pul mablag'lari ishlab chiqarishni rivojlantirishga, noishlab chiqarish obyektlaridan foydalanish va ularni rivojlantirishga, xodimlarning shaxsiy iste'moliga hamda zaxira pullari sifatida foydalanishi mumkin.

Davlat moliyaviy resurslari deyilganda davlatning o'z funktsiya va vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan davlat ixtiyoridagi mablag'lar tushiniladi.

Moliyaviy resurslar quyidagi turlarga bo'linadi:

- markazlashgan fondlar (mamlakat budjeti, budjetdan tashqari fondlari);
- markazlashmagan fondlar (korxonalar pul fondlari).

Davlat moliyaviy resurslarining shakllantirishi va sarflanishi davlat budjetida o'z aksini topadi.

Moliyaviy resurslar masalasiga har bir mamlakatda alohida e'tibor beriladi. Shu jumladan O'zbekistonda ham davlat moliyaviy resurslarning shakllanishidan tartib sarflanishigacha bo'lgan butun jarayon davlat tomonidan qattiq nazoratga olingan Bunday samarasi o'laroq, «...2004-2008 yillar davomida mamlakatimizda YAIM hajmining dollar hisobida 2,6 barobar o'sgani, YAIM hajmi aholi jon boshiga 2 barobardan ziyod oshgani, hech shubhasiz iqtisodiyotimizdagi tub o'zgarishlar o'zining amaliy samarasini berayotganini yaqqol isbotlab turibdi»¹.

Shunga ko'ra biz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi

¹ I.A.Karimov „Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy etgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari“, T: „O'zbekiston“, 2010 y.

oqibatlarining ta'sirini har tamonlama hisobga olishimiz, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'sirini nutai nazaridan shakllanishimiz va ularni izchil amalga oshirishimiz taqazo etiladi.

Hamon davlat budjeti daromadlar qismida eng muhim bo'lgan ba'zi soliq turlarini undirishda rejaning bajarilmasligi, xarajatlarning esa yildan yilga oshib borishi faoliyatni tashkil etishda mablag'lar taqchilligini bartaraf etish hamda moliyaviy faoliyatini yaxshilash yuzasidan eng maqbul qarorlarini chiqarish imkonini bermaydi. Shuningdek, moliya budjet sohasida munosabatlarini barqarorlashtirishni davlat tomonidan tartibga solish usullarini takomillashtirish masalalari to'liq hal etilmagan shu jihatdan tanlangan mavzu dolzarb hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi davlat moliyaviy resurslari shakllanishi va sarflanishi o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar shakllari va ularni takomillashtirishning nazariy asoslarini o'rganishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishida qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar:

- O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi va uning o'ziga xos xususiyati, mohiyati va ahamiyatini o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy resurslari, ularning tuzilmasi, jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi o'rnini ochib berish;
- O'zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy resurslari ishlatish yo'nalishlari, ularning mohiyati va xalq farovonligini oshirishdagi ahamiyatini o'rganish;
- Budjet tizimi, davlat moliyaviy resurslari, ularning ishlatilish yo'nalishlari mohiyati to'g'risidagi nazariyalar asoschilari fikrlarini o'rganib, ularni tahlil qilish;

Ilmiy yangiliklarni tashkil etuvchi eng muhim xulosa va takliflar quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi budet tizimi yoritlib berildi;
- O'zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy resurslari, ularning tuzilmasi va jamiyat hayotidagi o'rnini ochib berildi;
- O'zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy resurslarning ishlatilish yo'nalishlari, mohiyati va xalq farovonligini oshirishdagi ahamiyati o'rganildi;
- Budjet tizimi, davlat moliyaviy resurslari, ularning ishlatilish yo'nalishlari mohiyati to'g'risidagi nazariyalar asoschilarning fikrlari o'rganilib, tashkil qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishi predmeti bo'lib davlat moliyaviy resurslari, ularning tuzilmasi, shakllanishi, ishlatilish yo'nalishlari hisoblanadi.

Ilmiy izlanishlar jarayonida davlat moliyaviy resurslari, ularning manbalari va ishlatish yo'nalishlarini mukammal o'rganish maqsadida tadqiqot obyekti Qashqadaryo viloyati moliya boshqarmasining ma'lumotlari asos qilib olinadi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, mazmunan uzviy bog'langan uchta bob, xulosalar, oltita jadval, adabiyotlar ro'yxatini mujassamlashtirgan holda 181 betlik matnni tashkil etadi.

I bob.O'zbekiston Respublikasi budget tizimi va moliyaviy resurslari

1.1. O'zbekiston Respublikasi budget tizimi

Budget tuzilishi mamlakatning davlat budgeti va tizimini uning ayrim bo'g'inlarining o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil qilishni, budget tizimidagi budgetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, budgetlar tarkibi va tuzilmasini, budget mablag'larini shakllantirish va sarflashdagi tartib qoidalar va boshqalarni belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi budgetining tuzilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Budget tizimi to'g'risida» gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining har yili qabul qilinadigan «O'zbekiston Respublikasining davlat budgeti tog'risida» gi Qarori va Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi davlat budgetining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va parametrlari prognozi to'g'risida» gi Qarorlari va boshqa qonun hujjatlari asosida belgilanadi.

Budget tizimi turli darajadagi budgetlar va budget mablag'lari oluvchilari yigindisini, budgetlarni tashkil qilish va tuzish prinsiplarin, budget jarayonida ular o'rtasida shuningdek, budgetlar hamda budget mablari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munasabatlarni ifoda etadi².

Budget tizimi-davlat moliya tizimining bosh bo'g'ini hisoblanadi. Budget tuzilish asoslari mamlakatning davlat tuzumi, mamlakatda amalda bo'lgan asosiy qonun hujjatlari, budgetning ijtimoiy takror ishlab chiqarish va ijtimoiy jarayonlardagi roli bilan belgilanadi. Shuningdek, budget tizimi tuzilishi mamlakatning davlat va ma'muriy tuzilishi shakliga ham bogliq.

Unitar (yagona) davlat-bu ma'muriy-huquqiy birliklar o'z davlatiga yoki muxtoriyatiga ega bo'lmaydigan davlat tuzilishidir. Unitar davlatning budget tizimi 2 bo'g'indan-davlat budgeti va mahalliy budgetlardan tashkil topadi.

O'zbekiston Respublikasi budget tizimi quyidagi asosiy prinsipla ga ko'ra tuziladi:

- budget tasnifitizimi, hisob budget hujjatlari va budget jarayoni tuzilishining yagonaligi;
- budget tuzilishining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;
- turli darajadgi budgetlarning o'zaro bog'liqligi;
- davlat budgetining balansligi;
- davlat daromadlarini aniq manbalar bo'yicha rejalashtirish
- davlat budgeti loyihasini tayyorlamaydi;
- davlat budgeti mablag'larining tushumi va sarfi tartibini belgilaydi hamda ular ustidan nazoratni oshiradi;
- respublika budgeti xarajatlarini amalga oshiradi;
- budget tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini ro'yxatdan o'tkazadi;

² O'zbekiston Respublikasi «Budget tizimi to'g'risidagi» gi Qonuni, 4-modda Respublikasi Moliya Vazirligi:

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi³;

Barcha darajadagi budjetlar yagona budjet tasnifi-daromadlar va xarajatlarni tasnif obyektlariga guruhlovchi xos raqm (kodlar) berish bilan guruhlash ko'rsatkichlari doirasida shakllantirilad va ijro etiladi.

Budjet tasnifi:

- davlat budjeti daromadlari tasnifini;
- davlat budjeti xarajatlarining vazifa jihatidan, tashkiliy va iqtisodiy tasnifini;
- davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifini o'z ichiga oladi.

Davlat budjeti daromadlarining tasnifi qonun hujjatlariga muvofiq daromadlarni turmushlari va manbalari bo'yicha guruhlashdan iborat. Davlat budjeti xarajatlarning tashkiliy tasnifi budjetdan ajratiladigan mablag'lar ularni bevosita oluvchilar o'rtasida taqsimlanishini aks ettiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga va tadbirlar turlari bo'yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo'ladi. Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi to'lovlarning iqtisodiy vazifasi va turlari bo'yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo'ladi. Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi taqchillikni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari bo'yicha guruhlashdan iborat bo'ladi.

Budjetni rejalashtirish-davlatning moliya siyosati talablariga muvofiqlashtirilgan moliyavuy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi. Bunday rejalashtirishning iqtisodiy vazifasi turli darajadagi budjetlar va nobudjet jamgarmalarni tuzish va ijrosi jarayonida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umummilliy dasturlari asosida ijtimoiy mahsulot va milliy daromadning qiymatini moliyaviy tizim bo'g'inlari o'rtasida markazlashtirilgan rejalashtirishdan iboratdir. Budjetni rejalashtirish davomida moliya mamlakatning rivojlantirish davlat dasturlarining asosiy iqtisodiy va sifat ko'rsatkichlariga hamda tabiiy, moddiy, resurslaridan samarali foydalanish rezervlarini topishga faol tasir ko'rsatadi.

Budjetni rivojlantirishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- budjet masalalarini yagona huquqiy normalar bilan tartibga solinishi;
- budjet mablag'lari yo'nalishining aniq adresli va maqsadli xarakteri;
- yillik budjetni rivojlantirishning uzluksizligi;
- moliya ko'rsatkichlarning barqarorligi;
- balans usuli.

Budjetni rejalashtirish davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Budjetni rejalashtirish turli darajadagi budjetlarni tuzish va ijro etish tartibi, uning me'yoriy, huquqiy bazasi va tashkiliy asosi tarzida budjet jarayonini, shuningdek mamlakat budjetini tuzishning nazariyasi va metodologiyasi masalalarini ham o'z ichiga oladi. Budjet bo'yicha rejalashtirish asoslari mamlakat konstitutsiyasi va qonunlari bilan belgilanadi.

Budjet jarayoni budjetni rejalashtirishning asosiy shakli sifatida hokimiyat organlarning davlat budjeti va unga kiradigan budjetlarni tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, ularning ijrosini nazorat qilish, shuningdek ularning ijrosi haqidagi

³ O'zbekiston Respublikasining « Budjet tizimi to'g'risida » gi Qonuni, 8-modda.

hisobotlarni tasdiqlash bo'yicha qonun hujjatlari bilan tartibga solingan faoliyatidan iborat.

Budjat jarayoni budjat faoliyatining 4 bosqichini qamraydi:

- budjet loyihasini tuzish;
- budjetni ko'rib chiqish va tasdiqlash;
- budjetni ijro etish va uning ijrosini nazorat qilish;
- budjet irjosi to'grisida hisobot tayyorlash va uni tasdiqlash.

Budjetlar orqali tartibga solish, ya'ni moliya resurslari turli darajadagi budjetlar o'rtasida qayta taqsimlash budjet jarayonining tarkibiy qismini tashkil qiladi. O'zbekiston respublikasi Moliya Vazirligi har yili O'zbekiston respublikasi Moliya Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda kelgusi modda yiliga :

- tegishli budjetlar va davlat maqsadli jamgarmalari loyihalarini tayyorlash Qoraqolpog'isto Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga, davlat maqsadli jamgarmalarini taqsimlovchi organlarga;

- budjetdan ajratiladigan mablaglarni olishga buyurtmalar tuzish uchun respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablaglari oluvchilarga bdjet so'rovi yuboradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat budjetining ijrosi to'grisidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasiga u tashqi audit va baholash o'tkazishi uchun hisobot yilidan keying yilning beshinchi aprelogacha yuboradi. O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi davlat budjetining ijrosi to'grisidagi hisobotga doir xulosasini hisobot yilidan keyingi yilning o'ninchi mayidan kechiktirilmay O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat budjetining ijrosi to'grisidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasining tegishli xulosasi bilan birga hisobot yilidan keyingi yilning 15-mayidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonuncilik palatasiga taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi soliqlar, yig'imglar, bojar boshqa majburiy to'lovlarning davlat budjetiga hisobot to'grisidagi hisobotni har oyda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligiga qonun hujjat belgilangan muddatlarda taqdim etadi.

Davlat soliq xizmatining joylardagi soliq organlari soliqlar, yig'imglar, bojar va boshqa majburiy to'lovlarning davlat budjetiga hisobot davridagi tushumlari to'grisidagi hisobotni har oyda tegishli moliya organlariga qonun hujjatlarida belgingan muddatlarda taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari davlat budjetining ijrosi to'grisidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Moliy Vazirligi belgilagan muddatlarda tuzadi va ushbu hisobotni tegishli O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligiga, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar moliya organlariga taqdim etadi.

2.1.O'zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy resurslarining ishlatilish yo'nalishlari (budjet xarajatlari)

Davlat budjetining daromadlari mamlakat YAIM ini taqsimlash va qyta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biridir. Ular huquqiy va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan daromad va jamg'malarning bir qismini budjetga o'tkazilishi natijasida vujudga keladi. Bunday daromadlarning moddiy buyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi. Bu moliyaviy kategoriyaning namoyon bo'lishi shakli budjetga borib tushivchi turli soliqlar, to'lovlar, yigimlar, bojlar va ajratmalardan iborat.

Miqdoriy jihatdan davlat budjetining daromadlari yaratilgan YAIM da davlatni ulushini ko'rsatadi. Ularning absolut hajmi va salmog'i mamlakatning YAIM ning umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi. Ana shularga muvofiq ravishda davlat budjetida mablaglarni konsentratsiya qilish miqdori va ularni undirishning shakl metodlari aniqlanadi.

Davlat budjetining daromadlari o'zlarining manbalari ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkichilik shakli, soliq va to'lovlarning turi, mablaglarning tushish shakli va ularni budjetga undirish metodlariga muvofiq klassifikatsiya qilinishi mumkin. Eng avvalo davlat budjetining daromadlari o'zlarining manbalariga ko'ra quyidagi 3 guruhga bo'linadi;

- solikli daromadlar;
- nosolikli daromadlar;
- tiklanmaydigan pul mablaglari.

Soliqdan olinadigan daromadlarning asosiy manbalari-bu yangidan yaratilgan qiymat va uning dastlabki qayta taqsimlanishi natijasida olingan daromadlar (foyda, ish haqi, qo'shilgan qiymat, ssuda foizi, renta, dividendlar va boshqalar), shuningdek, jamg'armalardir. Soliqqa kirmaydigan, ya'ni nosoliq daromadlarning ko'pchiligi doimiy, qat'iy belgilangan stavkada undiriladigan xazina daromadlari ko'rinishlari ega bo'lmaydi. Budjetning nosoliq daromadlari qat'iy rejalashtirilmasligi kerak, lekin amaliyotda ko'p hollarda ular odatda ilgarigi yildagi tushumlar darajasida rejalashtiriladi. Nosoliq daromadlari soliq daromadlari kabi O'zbekiston Respublikasining vakillik organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar uchun joriy qilinadi.

Budjetning daromadlar qismini to'ldirishning manbalaridan biri budjet tizimida boshqa darajada turgan budjetdan dotatsiyalar, subvinsiyalar va subsidiyalar yoki mablag'larni qaytarilmaslik va tiklanmaslikning boshqa shakllarida olinadigan moliyaviy yordamlardir. Bunday moliyaviy yordamlar mablag'larni oluvchi budjetning daromadlarida o'z ifodasini topishi kerak.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi⁴.

Soliqlarga quyidagilar kiradi:

- 1) huquqiy shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

⁴ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 23-modda.

- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) yer qaridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus yo'lovlar;
- 6) suv resurslarida foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'ii;
- 9) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;

Boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

- 1) ijtimoiy jamgarmalarga majburiy to'lovlar;
- 2) respublika yo'l jamgarmasiga majburiy to'lovlar;
- 3) davlat boji;
- 4) bojxona to'lovlari;
- 5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi.

O'zbekistonda 1992 yilga qadar foizlar va mehnat resurslari uchun to'lovlar bilan birgalikda undiriladigan foyda solig'i amal qilgan. 1992 yildan buyon bu soliq daromad solig'i bilan almashtiriladi. Soliqning stavkasi o'rtacha 12% ni soishtirma hissasi budjet daromadlarida jami tushumlarning 17,6% ni tashkil qilgan. 1995 yil yanvaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida soliqlarning ragbatlantiruvchanlik rolini kuchaytirishning asosiy yo'nalishlari to'grisida» gi Farmoniga binoan foyda soligi joriy etildi Foyda solig'ini moliya yilida soliqqa tortiladigan foydaga ega bo'lgan huquqiy shaxslar to'laydilar. Daromad solig'i har qanday soliq tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida bu soliq turi 1991 yil mart oyidan boshlab 1991 yil 15-yanvarda qabul qilingan.

Qo'shilgan qiymat solig'i-tovarlarni ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmat ko'rsatish), ularni sotish hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlar (ishlar, xizmatlar) import qilish jarayonida qo'shilgan qiymatning bir qismini budjetga olish shaklidir. Aksiz solig'i-bilvosita soliq turi bo'lib, tovarlar yoki xizmatlar narxiga ustama undiriladi, uni oxirgi iste'molchilar to'laydilar. Aksiz solig'i davlat umumiy soliq siyosatining tarkibiy qismiga kiradi va davlat budjetini ko'paytirish, ayrim tovarlarni (tamaki, alkogol mahsulotlari) iste'mol qilish, ayrim turdagi korxonalarining atrof-muhitga zararli oqibatlari bilan bog'liq ijtimoiy xarajatlar o'rnini to'ldirish, shuningdek avtomobil yo'llarini qurish va uni saqlash xarajatlarini qoplash, mamlakatdagi ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlash maqsadida qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasida aksiz solig'i birinchi marta 1992 yilda, O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 1-martda qabul qilingan. «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar to'laydigan soliqlar to'grisida» gi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasining qonunlari bilan kiritilgan va respublika iqtisodiyotining bozor iqtisodiyotiga o'tishi bilan bog'liq keyingi o'zgartirish-larni hisobga olgan holda joriy qilingan.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq-O'zbekiston Respublikasining «Yer osti boyliklari tog'risida» gi Qonuniga muvofiq 1995 yil 1-yanvardan joriy qilingan. 1995 yildan jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq joriy qilindi. Yer

solig'i 1994 yil 1-yanvardan qishloq xo'jaligiga taalluqli bo'lmagan yerlar uchun joriy qilingan. 1995 yil 1-yanvardan boshlab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda foydalaniladigan yerlar uchun yer solig'i undiriladigan bo'ldi. 1998 yildan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun ilgari to'lab kelingan barcha soliqlar o'rniga yagona yer soligi joriy qilindi. Budget daromadlarining faqat ba'zi birlarigina oldindan belgilangan maqsadlar uchun mo'ljallangan. Ularning tarkibiga ijtimoiy sug'urta badallarni kiritish mumkin.

Davlat budgetining daromadlari majburiy yoki ixtiyoriy tarzda mobilizatsiya qilinishi mumkin. Bunda daromadlarni majburiy shaklda mobilizatsiya qilish hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Ixtiyordagi shakldagi to'lovlarga davlat obligatsiya-larine va pul buyum loteriyalarini realizatsiya qilishdan olingan tushumlar kiradi. Soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va majburiy ajratmalarning alohida shakllari va turlarining yig'indisi davlat budjeti daromadlarining yagona tizimini shakllantiradi. Turli subyektlardan kelib tushadigan davlat budgetining daromadlari umumdavlat ehtiyojlarini ta'minlab bir-biri bilan bog'laganlar.

II bob.O'zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy resurslarining ishlatilish yo'nalishlari (budjet xarajatlari) va ularning samaradorligi

2.1.O'zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy resurslarining ishlatilish yo'nalishlari (budjet xarajatlari)

Davlatning o'z funksiyalari va vazifalarini bajarishi bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan chiqimlar budjet xarajatlari deyiladi.Bu chiqimlar davlatning markazlashtirilgan pul fondlarini turli yo'nalishlar bo'yicha foydalanish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Budjet xarajatlari umumiy moliyaviy kategoriya sifatida budjetnin ko'rinishlaridan biri bo'lib, unga tegishli bo'lgan umumiy xususiyatga egadir, ya'ni ular taqsimlash ega, ifodalanishning pul shakli xos, pul fondlarining amal qilinishi bilan bog'langan va davlat tomonidan tashkil qilinadi. Budjet xarajatlari asosan qaytari olinmaydigan, qaytmas xususiyatga ega. Faqat budjet kreditlari va budjet ssudalari qaytariladigan asosda berilishi mumkin. Xarajatlar tuzilmasi yil uchun tasdiqlanadigan budjetda bevosita ko'rsatildi va budjet daromadlari kabi iqtisodiy vaziyatga, ijtimoiy ustuvorliklarga bogliq bo'ladi.

Budjet xarajatlarining iqtisodiy mohiyati uning turli tuman ko'rinishlari orqali namoyon bo'ladi. Xarajatlarning har bir turi esa o'zining miqdoriy va sifat xarakteristikasiga ega. Bunda ularning sifat xarakteristikasi voqelikning iqtisodiy tabiatini ifodalab, budjet xarajatlarining mo'ljallanganligini, miqdoriy xarakteristikasi esa ularning o'lchamini aniqlashga imkon beradi. Budjet xarajatlari chiqimlarning aniq turlari orqali namoyon bo'ladi. Budjet xarajatlari aniq turlarining xilma xilligi esa o'z navbatida quyidagi omillarning mavjudligi bilan belgilanadi: davlatning iqtisoiy tabiati va funksiyalari; mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi; budjetning milliy iqtisodiyot bilan bog'langanligi; iqtisodiy munosabatlarning rivojlanganlik darajasi; budjet mablarining namoyon bo'lish shakllari va boshqalar. Bu omillarning qo'shilishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida har qanday davlat budjetining u yoki bu xarajatlar tizimini vujudga keltiradi.

Budjetning capital xarajatlari innovatsion va investitsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlardir. Bu xarajatlarning tarkibiga:

- tasdiqlangan investitsion dasturga muvofiq harakatdagi yoki yangidan tashkil etilayotgan huquqiy shaxslarga investitsiyalar uchun mo'ljallangan;
- huquqiy shaxslarga investitsion maqsadlar uchun budjet kreditlari sifatida beriladigan mablaglar;
- kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan kapital ta'mirlashni amalga oshirish xarajatlari va shu bilan bogliq bo'lgan boshqa xarajatlari;
- amalgam oshirilishi davlat mulkiga tegishli bo'lgan mulkni oshirish yoki uni yangidan yaratishga olib keladigan xarajtlar;
- budjet xarajatlarining iqtisodiy xarakterlanishiga muvofiq budjetning kapital xarajatlari tarkibiga kiritiladigan boshqa xarajatlar kiradi.

Funksional nuqtai-nazaridan budget xarajatlarining klassifikatsiya qilinishi ijtimoiy faoliyat sohalariga pul mablag'larining yo'naltirilganligini aks ettiradi. Bunda budget xarajatlari quyidagi yirik guruhlariga bo'linishi mumkin:

- davlat boshqaruvi va mahalliy o'z-o'zini boshqarish;
- sud hokimiyati;
- xalqaro faoliyat;
- milliy mudofaa;
- huquqni muhofaza qilish va davlat xavfsizligini ta'minlash;
- fundamental tadqiqotlar va ilmiy texnika taraqqiyotini ta'minlash;
- sanoat, energetika, va qurilish;
- qishloq xo'jaligi va baliqchilik;
- atrof-muhitni va tabiiy resurslar muhofaza qilish, gidrometrologiya, xaritashunoslik va geodiziya;
- transport, yo'l xo'jaligi aloqa va informatika;
- uy-joy kommunal xo'jalik;
- ma'orif;
- sog'liqni saqlash va jismoniy tarbiya;
- madaniyat, san'at va kinematografiya;
- ommaviy axborot vositalari;
- maqsadli budget fondlari;
- davlat qarziga xizmat qilish;
- davlat zaxiralari va rezervlarni to'ldirish;
- ijtimoiy siyosat.

Ijtimoiy mo'ljallanganligi bo'yicha budget xarajatlarining iqtisodiy guruhlariga ajratilishi davlatning toifasi va u tomonidan bajariladigan funksiyalarni o'zida aks ettiradi. Ana shunga muvofiq ravishda budgetning barcha xarajatlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- milliy xo'jalikka oid xarajatlar;
- rivojlanayotgan mamlakatlarga subsidiyalar va kreditlar taqdim etish xarajatlari;
- boshqaruv xarajatlari;
- harbiy xarajatlar.

Davlatning ijtimoiy funksiyasini o'zida aks ettirib, bu guruhdagi budgetning xarajatlari xalq ta'limi tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga, fan va madaniyatni moliyalashtirishga, aholining tibbiy xizmatga bo'lgan talabini qondirishga, ijtimoiy sugurta va ijtimoiy ta'minotni amalgam oshirishga keng yo'l ochib berdi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida budgetning xarajatlari uning daromadlari bilan uzviy bog'liqdir. Bunday o'zaro bog'liqlik xarajatlarning miqdoriy jihatdan daromadlarga muvofiq kelishi va ularning bir-biriga o'zaro ta'siri ko'rsatishi orqali ifodalanadi. Bir tomondan, aksariyat hollarda, budget xarajatlarning hajmi budjaet daromadlarining hajmi bilan cheklanadi. O'z navbatida budget daromadlarining

hajmi esa davlatning iqtisodiy imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Shuning uchun ham bu yerda budget xarajatlarining shunday hajmini va milliy xo'jalikda pul fondlarini shakllantirishda budget mablag'laridan foydalanishning shunday muddatlarini o'rnatish kerak, ular minimal xarajatlar qilib maksimal samaraga erishish orqali davlat oldidagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlansin.

Mamlakatda milliy xo'jalikni moliyaviy jihatdan tartibga solish budget daromadlarini rejalashtirish jarayonlari davomida amalga oshiriladi. Rejalashtirish jarayoning o'zidayoq budget xarajatlarning umumiy hajmi gorizontaliga va vertikaliga taqsimlanib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarning sodir b o'lishi uchun tegishli sharoit yaratiladi. Budgetdan moliyalashtirish jarayonida esa davlat o'zining ixtiyoriga kelib tushayotgan pul mablag'larini rejalashtilgan tadbirlar doirasida va undan tashqarida keng ma'noda qilish imkoniga ega bo'ladi.

Budget xarajatlarining tarkibi va uning tuzilmasi davlatning tabiatiga u tomonidan bajarilayotgan funksiyalarga, milliy xo'jalikning ehtiyojlariga bog'liq hamda budget mexanizmi orqali ishlab chiqarish va iste'molning ba'zi bir omillariga davlatning ta'sirchanligini ta'minlash kabilar bilan belgilanadi. Moliya organlari iqtisodiyotning turli tarmoqlariga budgetdan ajratilgan mablag'larni sarflash ustidan nazorat olib boradi va budgetdan ajratilgan mablag'lar ortiqcha sarflangan hollarda, ushbu holatlarning sabablarini o'rganib chiqadi hamda chiqimlarni kamaytirish yuzasidan tegihli xulosa va takliflarni taqdim etadi.

2.2.O'zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy resurslarining ishlatilish samaradorligi

O'zbekiston o'zini mustaqil davlat deb e'lon qilib, davlatni tanglikdan chiqarish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va dunyoviy, iqtisodiy va siyosiy mustaqil, qudratli, gullab-yashnaydigan kuchli demokratik davlat qurish dasturini ishlab chiqdi va uni amalga oshirishga kirishdi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash uchun esa o'z navbatida davlatdan moliyaviy resurslarni oqilona va samarali ishlatishni talab qilinardi. Chunonchi, mustaqillik e'lon qilingan paytda O'zbekiston iqtisodiyoti nochor ahvolga tushib qolgandi. Xususan, «O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan yarim mustamlaka mamlakat qatoriga aylangan edi»⁵.

Sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatdan respublika mamlakatdan 40%, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa ikki baravar ortda qolmoqda. Respublika aholi jon boshiga xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish o'rtacha Ittifoq darajasining atigi 40% ini tashkil etadi. Biz daromad darajasi, asosiy turdagi mahsulotlarni iste'mol qilish jihatdan ittifoqdosh respublikalar orasida eng oxirgi o'rinlarda turibmiz.

O'zbekiston aholisi o'rta hisobda go'sht mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni, umuman mamlakat aholisiga nisbatan 2 barobar kam iste'mol qilmoqda. Oyiga o'rta hisobda 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi mamlakatda 12% dan sal ko'proq bo'lsa, bizning respublikamizda 45% ga boradi. Bir millionga yaqin kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda o'zining qo'lidan keladigan ishni topa olmayapti.

Mana shu 20 yil muddat ichida O'zbekiston oqilona siyosat yuritishni, shu jumldan, davlat moliyaviy resurslarning to'g'ri ishlatilishi samarasi o'laroq ko'lab ijobiy natijalarga erishib kelmoqda. Birgina 2012 yildagi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari misolida ham bunday natijalarning ko'pchiligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Hozirgi kunda mamlaktning iqtisodiy holati haqida ma'lumot beruvchi asosiy ko'rsatkich bu-YAIM ko'rsatkichidir. 2012 yilda mamlakatimiz YAIM o'tgan yilga nisbatan 8,2% ga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7%ga, qishloq xo'jaligi 7%ga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9% ga oshdi

Har yili O'zbekiston davlat moliyaviy resurslarning yarmida ko'prog'ini ijtimoiy sohaga sarflaydi. 2012 yilda ham davlat jami xarajatlarning asosiy qismi, ya'ni qariyb 59,2% i ijtimoiy sohaga va aholini ijtimoiy himoya qilish chora tadbirlarini amalga oshirishga qaratildi, uning 34% dan ortig'i ta'lim, 14,5% dan ko'prog'i sogliqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga yo'naltirildi.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida davlat qarzining ortib borishi bilan bog'liq muammolar saqlanib qolayotgan bir sharoitda, O'zbekistonning chetdan qarz olish bo'yicha puxta o'ylangan siyosat olib borishi natijasida davlat qarz hajmining ulishini nisbatan past darajada ushlab qolishga va o'z majburiyatlariga to'liq javob beradigan mamlakat sifatida barqaror obro'-e'tiborini saqlab qolishga erishdi. 2013 yilning 1-yanvar holatiga ko'ra,

⁵ I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» T: «O'zbekiston», 1999 y, 6-b

O'zbekistonning jami tashqi qarzi miqdori YAIMga nisbatan 16% dan oshmagan, bu ko'rsatkich esa xalqaro mezonlar bo'yicha «o'rtachadan ham kam» darajada baholangan buni isbotlab bermoqda.

2012 yilda uzunligi 240 km bo'lgan temir yo'lni qayta tiklash ishlari davom ettirildi. Uzunligi 70 kmdan ortiq bo'lgan Dashtobod-Jizzax temir yo'l tarmogi bo'ylab yuk va yo'lovchi poyezdlar harakati yo'lga qo'yildi. 2012 yilda telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha ham katta ishlar bajarildi. Bu borada ko'zda tutilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida uzunligi 180 kmdan ziyod bo'lgan Boysun-Denov, Urgut-Shahrisabz optik tolasi aloqa liniyasi ishga tushirildi. 2012 yilda O'zbekistonda deyarli barcha qishloq xo'jalik ekinlari-g'alla, paxta, sabzavot, poliz ekinlari va uzumdan yuqori hosil olinadi.

Mamlakatimiz dehqonlari mo'l hosil yetishtirishdi: 3mln 460 ming tonnadan ortiq paxta, 7 mln 500 ming tonna g'alla, 2 mln tonnadan ziyod kartoshka va 9 mln tonnadan ortiq sabzavot hamda poliz mahsulotlari yigib-terib olindi. 2012 yilda xizmat ko'rsatish sohasi ham yuqori sur'atlar bilan rivojlandi. Aholiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi qariyb 15% ga o'sdi, ushbu sohaning mamlakatimiz YAIM dagi ulushi esa bugungi kunda 52% dan ziyodni tashkil qilmoqda. Bu jarayonda xizmatlarning yuqori texnologiyalarga asoslangan va bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan turlari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Jumladan, aloqa va axboratlashtirish xizmatlari 24,5% ga, komputer dasturlash xizmatlari 18% ga, texnologik asbob-uskunalarini ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish 17% ga, moliya bank xizmatlari 17,6 %ga o'sdi.

Ta'lim sohasidagi ishlarni sarhisob qilarkanmiz, Fransiyadagi dunyoviy eng yaxshi 5 ta biznes maktabi qatoriga kiradigan «Inssad» xalqaro biznes maktabining 2012 yilgi «Innovatsiyalarning global indeksi» maruzasida bayon etilgan ma'lumotlarni keltirish o'rinlidir. Ushbu ma'ruzada dunyoning 141 mamlakatidagi innovatsion rivojlanish kompleksi tarzda tahlil qilingan. Yurtimizda sportni avvalambor, bolalar sportini rivojlantirishga doimiy ravishda katta e'tibor qaratilayotganligini ham, hech shubhasiz, aholi salomatligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

2012 yilda 108 ta bolalar sporti obyekti, jumladan, 16 ta suzish havzasi, Navoiy sharida 10ming o'rinli yangi stadion, Nukus shahrida tennis maktabi, mamlakatimiz hududlarida 12 ta bolalar va o'smirlar sport maktabi foydalanishga topshirildi. Samarqand shahrida eshkak eshish kanalini rekonstruksiya qilish ishlari nihoyasiga yetkazildi. Ayni vaqtda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan qariyb 1mln 600 ming bola yoki yutimizdagi bolalarning 35,6% i turli sport turlari bilan shug'ullanmoqda. 2012 yilda aholi daromadlari 17,5% ga, eng kam ish haqi 26,5% ga o'sdi.

O'zbekistonda aholining eng ko'p ta'minlangan 10% va eng kam ta'minlangan 10% qatlami daromadlari o'rtasidagi tafovut 2012 yilda atigi 8 barobarni tashkil etdi. Bu jahondagi eng past ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, mamlakatimizda jamiyatning keskin tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslik borasida olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning samarasidir. Ayni paytda oilalarning 97% o'z uyiga ega, aholining 90% i uzoq muddat foydalaniladigan barcha asosiy tovarlar

bilan ta'minlangan, har 3 oildan biri shaxsiy yengil avtomobiliga ega, aholi iste'mol mahsulotlari bilan yetarli darajada ta'minlanmoqda.

Ayni paytda mamlakatimiz aholisining 50% ga yaqini o'zini o'rta toifaga mansub deb biladi, holbuki bu ko'rsatkich 2000 yilda atigi 24% aholi o'zini shu toifaga mansub deb bilardi. 2012 yilda Buyuk Britaniyaning xalqaro miqyosda tan oilngan Legatum institute o'zining farovonlik va rivojlanish indeksida O'zbekistonni dunyo mamlakatlari orasida haqli ravishda 64-o'rinda kiritgani e'tiborga loyiqdir. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, bu yutuqlar barcha resurs va imkoniyatlarimizni to'la safarbar eta olganimizning natijasidir. «Hech shubhasiz, xalqimizning tinimsiz mehnati, mardligi va matonati evaziga qo'lga kiritilgan bunday yutuqlardan va marralardan har qaysimiz g'ururlanib, boshimizni baland ko'tarib yashashga haqlimiz»⁶.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning « 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlari» ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

III bob. Qashqadaryo viloyati moliya boshqarmasi misolida davlat moliyaviy resurslari, ishlatilish yo'nalishlari va samaradorligi

3.1.Qashqadaryo viloyati moliya boshqarmasi misolida davlat moliyaviy resurslari va ularning manbalari

Qashqadaryo viloyati Moliya boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tarkibiy qismi bo'lib, Qashqadaryo viloyatida mahalliy budjetni amalgam oshiradi. Qashqadaryo viloyati budjeti xalq deputatlari viloyat sessiyasida tasdiqlanadi. Viloyat budjeti daromadlari tarkibida soliqlarning salmog'i taxminan 90-95% ni tashkil qiladi.

Bunda asosiy o'rinni qo'shimcha qiymat solig'i egallamoqda. Xususan, ushbu soliq turning 2010-2012 yillardagi viloyat budjeti daromadlaridagi o'rni mos ravishda 36,6%, 39,5% va 37,8% ni tashkil etadi. Shu raqamlardan ko'rinib turibdiki viloyat budjeti daromadlarini shakllantirishda qo'shilgan qiymat solig'i benihoya muhim sanaladi.. Shuning uchun keyingi yillarda ham qo'shilgan qiymat soligini yig'ib olishga alohida e'tibor qaratish lozim. Viloyat budjeti daromadlari tarkibidagi saalmog'iga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 2-o'rinda turadi, ya'ni joriy soliq turining daromadlar tarkibidagi salmog'i 2010 yilda 15,6% ni, 2011 yilda 8,1% ni, 2012 yilda esa 15,3% ni tashkil qilgan.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini yig'ib olish orqali viloyat budjeti daromadlarida 2010 yilda 10,6% i, 2011 yilda 12,6% i, 2012 yilda esa 11,1% i shakllantirilgan. Viloyat budjeti daromadlarining 2010 yilda 9,9% i, 2011-tilda 13,7% i, 2012 yilda 9,3% i huquqiy shaxslardan olinadigan foyda solig'ini undirish hisobiga shakllantirilgan. Huquqiy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqning viloyat budjetidagi ulushi 2010-2012 yillarda mos ravishda 602%, 7,6% va 9,1% ni tashkil qilmoqda.

Viloyat budjeti daromadlarining 78-83% qismi yuqorida sanab o'tilgan soliqlar zimmasiga to'g'ri keladi. Viloyat budjeti daromadlarining qolgan qismi boshqa turdagi soliqlar va yig'imlar, shu jamladan aksiz solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'mol qilganlik uchun soliq, yer solig'i, mikrofirmalar, turli tipdagi korxonalar va taskilotlar hamda tadbirkolik faoliyati bilan shug'ullanuvchi idoralar tomonidan to'lanadigan yagona soliq to'lovidan davlat budjetiga ajratmalar, huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lmagan turli xildagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan olinadigan qay'iy belgilangan soliq, davlat boji va boshqa nosoliqli daromadlardan iborat.

Viloyat budjetining daromadlar qismi 2010-2012 yillarda rejadagidan oshirilib bajarilib kelingan. Masalan, viloyat budjetining daromadlar qismi 2010 yilda 2% ga, 2011 yilda 0,05%ga, 2012 yilda esa 15,9% ga oshirilib bajarilgan. Ammo bunda barcha soliqlar va yig'imlar rejalashtirilganidek bajarilmagan. Misol uchun, viloyat budjet daromadlarining katta qismini atshkil qiluvchi O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan va realizatsiya qilinadigan mahsulotlarga solinadigan soliqni undirish ishlari 2010 yilda 99,3% ga, 2011 yilda 98% ga bajarilgani kuzatiladi.

3.2. Qashqadaryo viloyati moliya boshqarmasi misolida davlat moliyaviy resurslarining ishlatilish yo'nalishlari va samaradorligi

Qashqadaryo viloyati budjetining 2010-2012 yillardagi xarajatlarning tarkibiy o'zgarishining tahlil qilish uchun 3.2.1, 3.2.2 va 3.2.3 jadvallardan foydalanamiz. Jadval ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak, viloyat budjeti xarajatlarining katta qismi ijtimoiy-madaniy tadbirlar hissasiga to'g'ri kekmoqda. Ijtimoiy madaniy tadbirlarning viloyat budjeti xarajatlar qismidagi salmog'i 2010 yilda 52,3%, 2011 yilda 61,6%, 2012 yilda esa 67,4% ni tashkil etgan. Ijtimoiy madaniy tadbirlar sifarida umumiy ta'lim, o'rta maxsus, oliy ta'lim va kadrlarning malakasini oshirish, madaniyat va ommaviy axborot vositalari, fan, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, ijtimoiy ta'minot kabilar moliyalashtirilmoqda.

Bularning ichidan umumiy ta'lim, sogliqni saqlash, o'rta maxsus, oliy ta'lim va kadrlarning malakasini oshirish kabi sohalarni alohida ajratish lozim. Negaki, aynan ushbu sohalarga viloyat moliyaviy resurslarining kattagina qismi sarflanmoqda. Chunonchi, umumiy ta'lim sohasiga sarflangan mablag'larning 2010-2012 yillardagi viloyat budjeti xarajatlar qismidagi ulushi mos ravishda 32,5%, 37,3%, 39,5% ni, sog'liqni saqlash sohasida ushbu ulushlar ko'rsatkichlari 13,5%, 15,7%, 17,5% ni, o'rta maxsus, oliy ta'lim va kadrlarning malakasini oshirish sohasida esa 5,6%, 7,8%, va 9,6% ni tashkil qilmoqda.

Viloyat moliyaviy resurslari sarflanishi jihatidan keyingi o'rinda turmush farovonligini oshirish bilan bog'liq xarajatlar turadi. Bu turga quyidagi xarajatlar kiradi:

- voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa;
- ishlamaydigan onalarga bolasi 2 yoshga yetgunga qadar parvarish uchun nafaqa;
- kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam;
- tabiiy ovqatlardan zarar ko'rgan oilalarga moddiy yordam.

Ushbu turdagi xarajatlarni qoplash uchun viloyat moliyaviy resurslarning 15-18% i ajratilmoqda. Ijtimoiy madaniy tadbirlarga va turmush farovonligini oshirishga qaratilgan xarajatlarning katta salmoqqa egaligi yurtimizda xalq farovonligini harakat qilinayotganligining yaqqol ijobiy natijasidir. Xususan, boshqa hech bir davlatda ijtimoiy sohalarga bunchalik ko'p mablag'lar ajratilmaydi. Viloyat budjeti xarajatlar qismidagi ulushiga ko'ra keyingi o'rinlarda kapital quyilmalar va loyihalashtirish xarajatlari (4-8%), iqtisodiyot bo'yicha xarajatlar (1,5-2,5%), davlat tashkilotlarini saqlash xarajatlari (1-2%) va boshqa xarajatlar turadi.

Xulosa va takliflar

“O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy resurslari, ularning manbalari, ishlatish yo'nalishlari va samaradorligi” (Qashqadaryo viloyati Moliya boshqarmasi misolida) mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishini bajarish natijasida xulosa sifatida quyidagilarni keltiramiz:

1. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi turli darajadagi budjetlar va budjet mablag'iari oluvchilar yig'indisini, budjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, budjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek budjetlar va budjet mablag'iari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi.

Davlat budjeti:

- Respublika budjetini;
- Qoraqalpogiston Respublikasi budjetini va mahalliy budjetlarni o'z ichiga oladi.

Davlat budjeti tarkibida davlat maqsadli jamg'armalari jamlanadi.

Budjet tasnifi davlat budjet tuzilmasiga kiruvchi budjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek, uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlashdan iboratdir.

2. Budjet daromadlari davlat markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismidan iborat bo'lib, davlatning funktsiya va vazifalarini bajarish uchun zarurdir.

Budjet daromadlari o'zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to'lovlarning turlari, mablag'larning tushish shakli, ularni budjetga undirish metodlari va hokazolarga muvofiq klassifikatsiya qilinishi mumkin.

Soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va majburiy ajratmalar alohida shakllari va turlarining yig'indisi budjet daromadlarining yagona tizimini shakllantiradi. Turli sub'ektlardan kelib tushadigan budjet daromadlari umumdavlat ehtiyojlarinin ta'minlab, bir-biri bilan o'zaro bog'langandir.

3. Davlatning o'z funktsiya va vazifalarini bajarishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan chiqimlar budjet xarajatlari deyiladi. Bu chiqimlar davlatning markazlashtirilgan pul fondlari mablag'larini turli yo'nalishlar bo'yicha foydalanish jarayonida paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Budjet xarajatlarining iqtisodiy mohiyati uning turli-tuman ko'rinishlari orqali namoyon bo'ladi. Xarajatlarning har bir turi o'zining miqdoriy va sifat xarakteristikasiga ega.

Budjet xarajatlarining tarkibi va uning tuzilmasi davlatning tabiatiga, u tomonidan bajarilayotgan funksiyalarga, milliy xo'jalikning ehtiyojlariga bog'liq hamda budjet mexanizmi orqali ishlab chiqarish va iste'molning ba'zi bir omillariga davlatning ta'sirchanligini ta'minlash kabilar bilan belgilanadi.

4. Qashqadaryo viloyati budjet daromadlari tahlili ma'lumotlaridan shu narsa ma'lumki, mahalliy budjet daromadlarining asosiy qismini soliqlar tashkil etgan. Bunda hal qiluvchi rolni qo'shilgan qiymat solig'i, huquqiy shaxslardan olinadigan foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, obodonlashtirish

va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, huquqiy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq o'ynagan.

5. Qashqadaryo viloyati budjet xarajatlari ijrosi tahlilidan ma'lumki, budjet xarajatlarining katta qismi ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlariga to'g'ri keladi. Keyingi o'rinlarda esa turmush farovonligini oshirish bilan bog'liq xarajatlar hamda kapital qo'yilmalar va loyihalashtirish xarajatlari turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining «Budget tizimi to'grisida» gi Qonuni.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining» Davlat soliq xizmati to'grida» gi Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari.

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida soliqlarning rag'batlantiruvchi ahamiyatini kuchaytirishning asosiy yo'nalishlari to'grisida» gi 1994 yil 30-noyabrdagi PF-1014 sonli farmoni.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining» O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'grisida» gi 2012 yil 25-dekabrdagi PQ-1887-sonli Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

- 3.1. Karimov.I.A «O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyoti yo'li». T: «O'zbekiston», 1992 y
- 3.2. Karimov.I.A «O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'lalishlari». T: «O'zbekiston»,1993 y
- 3.3. Karimov.I.A «O'zbekiston-bozor munosabtlariga o'tishning o'ziga xos yo'li»,T: «O'zbekiston», 1993 y
- 3.4. Karimov.I.A «O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida», T: «O'zbekiston», 1995 y
- 3.5. Karimov.I.A «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», T: «O'zbekiston», 1999 y
- 3.6. Karimov.I.A «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari»,T: «O'zbekiston», 2009 y
- 3.7. Karimov.I.A«Jahon iqtisodiy inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari», T: «O'zbekiston», 2010 y
- 3.8. Karimov.I.A«O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida», T: «O'zbekiston», 2011 y
- 3.9. Karimov.I.A«Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish». O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi,«Xalq so'zi» gazetasi, 2013 yil 19-yanvar № 13(5687)

4. Darsliklar va o'quv qo'llanmalar

- 4.1. Vahobov A., Sirojiddinova Z., «O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti», O'quv qo'llanma, T.: 2012
- 4.2. Karimov Sh., Sadullaev I., «Molya» Oquv qo'llanma. Qarshi:» Nasaf «2004 y

- 4.3. Malikov T.S, Haydarov N.H»Budjet daromadlari va xarajatlari», O'quv qo'llanma, T.: «Iqtisod-Moliya», 2007 y
- 4.4. Malikov T.S, Haydarov N.H «Davlat budjeti “, O'quv qo'llanma, T.: «Iqtisod-Moliya» 2007 y
- 4.5. Yo'ldoshev A. «Soliq va soliqqa tortish», Oquv qo'llanma,T.:2007 y
- 4.6. Qudratov T. «Soliq va soliqqa tortish» ma'ruzalar kursi.Samarqand, 2011 y

5. Internet saytlari

- www.lex.uz
- www.ziynet.uz
- www.edu.uz
- www.tfi.uz
- www.fao.org
- www.ntps.ru
- www.mf.uz
- www.gov.uz
- www.nalog.ru
- www.vikiprdia.org